

**O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH
MANBALARI VA ULARNING AHAMIYATI**

**ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В
УЗБЕКИСТАНЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ**

**SOURCES OF FINANCING HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN
UZBEKISTAN AND THEIR IMPORTANCE**

Gulimboyev Sindor In’omjon O‘g‘li

*O‘zbekiston Milliy Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

e-mail: sindorgulimbayev2908@gmail.com

Ilmiy rahbar: X.X.Rejapov

O‘zMU, Moliya va kredit kafedrasi mudiri i.f.d., professor

e-mail: hayrillo0606@mail.ru

ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishning nazariy asoslari, uning manbalari hamda zamonaviy moliyalashtirish modellari tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta’limni davlat budjeti, xususiy sektor mablag‘lari va ilmiy tadqiqot loyihalari orqali moliyalashtirish mexanizmlari o‘rganilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar dinamikasi, talabalar qamrovi oshishi bilan bog‘liq moliyaviy yuklama hamda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning moliyaviy ta‘minoti tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. *Oliy ta’lim, Davlat budjeti, moliyalashtirish, diversifikatsiyalash, grant, innovatsiyalash, xarajatlar*

Гулимбаев Синдор Иномжонович

Национальный университет Узбекистана, факультет экономики, направление

«Финансы и финансовые технологии», студент 2 курса

e-mail: sindorgulimbayev2908@gmail.com

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы финансирования системы высшего образования, его источники, а также современные модели финансирования. Кроме того, изучены механизмы финансирования высшего образования через государственный бюджет, средства частного сектора и научно-исследовательские проекты. В статье проанализирована динамика выделяемых средств на сферу высшего образования в Республике Узбекистан, финансовая нагрузка, связанная с увеличением охвата студентов, а также финансовое обеспечение проводимых в последние годы реформ.

Ключевые слова. *Высшее образование, госбюджет, финансирование, диверсификация, грант, инновации, расходы*

Gulimboev Sindor Inomjonovich

Uzbekistan National University, Faculty of Economics, 2nd-year student of Finance and Financial Technologies

e-mail: sindorgulimbayev2908@gmail.com

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of financing the higher education system, its sources, and modern financing models. It also examines the mechanisms of financing higher education through the state budget, private sector funds, and scientific research projects. The article analyzes the dynamics of funds allocated to the higher education sector in the Republic of Uzbekistan, the financial burden associated with increased student enrollment, and the financial support for reforms implemented in recent years.

Keywords. *Higher education, State budget, financing, diversification, grant, innovation, expenses*

Har qanday tashkilot va muassasa o‘z faoliyatini samarali yuritishi uchun, birinchi o‘rinda, barqaror moliyaviy manbaga ega bo‘lishi zarur. Shu bilan bir qatorda, oliy ta‘lim muassasalarining faoliyati ham yetarli darajada moliyalashtirilishi chambarchas bog‘liq. Mamlakatimiz tarixiga-sotsialistik davrdan tortib bugungi kungacha nazar tashlaydigan bo‘lsak, oliy ta‘lim muassasalarining asosiy qismi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirib kelinganini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, dunyoning barcha rivojlangan davlatlari taraqqiyot poydevorini aynan ta‘lim sohasidan boshlagan.

Yosh avlodning puxta ta‘lim-tarbiyasi, kelajak poydevorining eng mustahkam asosi hisoblanadi. Zero, ta‘lim va tarbiya rivojlanmagan jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy hamda ilmiy taraqqiyotga erishish qiyin. Shu bois, ta‘lim sohasini moliyalashtirish masalasi har doim

dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan va bugungi kunda ham davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, Jahon bankining rasmiy saytidagi ma‘lumotlarda, ta‘limga investitsiya qilishning, iqtisodiy o‘shishga ta‘siri to‘g‘risida quyidagicha so‘z borgan: “Ta‘limni moliyalashtirish iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy rivojlanishga bevosita hissa qo‘shadi hamda investitsiyadan yuqori daromad keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qishning har bir qo‘shimcha yili shaxslarning daromadini sezilarli darajada oshiradi, bu esa ularning hayot sifatini yaxshilaydi va milliy mahsuldorlikni ko‘taradi. Ta‘limni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berish orqali hukumatlar yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirishi, tengsizlikni kamaytirishi va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirishi mumkin.

Bu maqsadlarga erishish uchun ta‘limni moliyalashtirish quyidagicha bo‘lishi kerak:

- **Yetarli**-ta‘lim tizimining ehtiyojlarini qondirish uchun zarur resurslarni ta‘minlash.
- **Samarali**-ajratilgan mablag‘lardan maksimal o‘quv natijalariga erishish uchun oqilona foydalanish.
- **Adolatli**-barcha shaxslarga, ularning kelib chiqishi va sharoitidan qat‘i nazar, sifatli ta‘limga teng kirish imkonini yaratish”¹¹¹.

Shu davrgacha O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish asosan, davlat budjeti, to‘lov-kontrakt summalari va budjetdan tashqari tushumlar (pullik xizmatlar, ilmiy faoliyatlar va boshqalar) hisobidan amalga oshirib kelingan. Lekin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25-dekabr 2021-yildagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qaroridan keyin, ko‘plab oliy ta‘lim muassasalari “o‘zini-o‘zi moliyalashtirish” tizimiga o‘tmoqda. Ushbu qarorda quyidagilar nazarda tutilgan: “Ayrim davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilib, ularning daromad va xarajatlarini mustaqil boshqarish imkoniyatlari yaratildi. Unga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalari to‘lov-kontrakt miqdorini belgilash, to‘lov muddatlarini aniqlash, stipendiya va grantlar ajratish hamda mavjud mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, davlat budjeti mablag‘larini ajratishning yangi tartibi joriy etilib, bir talaba uchun o‘rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi va ajratilgan mablag‘lar qoldig‘ini oliy ta‘lim muassasasi ixtiyorida qoldirish belgilandi. Qarorda moliyaviy shaffoflikni ta‘minlash ham muhim yo‘nalish sifatida belgilab, ichki audit va moliyaviy nazorat tizimini joriy etish, mablag‘lar sarfi yuzasidan muntazam hisobot berish hamda ma‘lumotlarni rasmiy veb-saytlarda e‘lon qilib borish majburiy etib belgilandi”¹¹².

¹¹¹ <https://www.worldbank.org/Education> finance

¹¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarori. <https://lex.uz/>

“O‘zini-o‘zi moliyalashtirish” tizimiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tizimning asosiy afzalliklari quyidagicha:

Mustaqil moliyaviy boshqaruv. Oliy ta‘lim muassasasi o‘z faoliyatini mustaqil olib borib, davlat budjetining moliyalashtirishsiz, ta‘lim bozoridagi talab va taklif holatidan kelib chiqib, ta‘lim xizmatlari narxini o‘zi belgilaydi. Buning natijasida, davlat budjeti xarajatlari kamayadi, oliy ta‘lim muassasalari esa maksimal foyda olishga harakat qiladi. Bu esa, ta‘lim bozoridagi raqobatni oshiradi.

Moddiy-texnik bazaning yaxshilanishi. Oliy ta‘lim muassasalari o‘z daromadlari hisobidan zamonaviy laboratoriyalar, o‘quv jihozlari, axborot texnologiyalari vositalarini xarid qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ta‘lim sifati oshishiga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Innovatsion faoliyatning kengayishi. Grantlar, ilmiy loyihalar, xo‘jalik shartnomalari va pullik xizmatlar orqali oliy ta‘lim muassasalari qo‘shimcha mablag‘lar jalb etadi. Bu esa ilmfan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirib, amaliy natijalarga yo‘naltirilgan tadqiqotlar ulushini oshiradi.

Ta‘lim-inson kapitalini rivojlantirishning asosiy dastagi hisoblanadi. U insonlarning jamiyat rivojlanishiga samarali hissa qo‘shishi uchun, bilim va ko‘nikma bilan ta‘minlaydi. Ushbu sohani rivojlantirish borasida ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan, klassik maktabning darg‘alaridan biri, Adam Smitning fikricha, “Jamiyat boyligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri bu-ta‘limdir va davlat ham ushbu soha xarajatlarini qoplashi kerakligini”¹¹³ ta‘kidlagan.

Keynschilik maktabining asoschisi, iqtisodchi olim-Jon Meynerd Keynes fikriga ko‘ra, “Ta‘limga yo‘naltirilgan investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, yalpi talab va bandlik kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini”¹¹⁴ ta‘kidlagan va buni asoslab ham bergan.

Yana bir iqtisodchi olim, Milton Fridmanning fikricha, “Ta‘limni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari tarafdorligini bildirib, davlat to‘liq moliyalashtiruvchi emas, balki rag‘batlantiruvchi rolini bajarishi kerak ekanligini”¹¹⁵ bildirib o‘tgan. Undan tashqari, M.Fridman, resurslarni samarali taqsimlash, isrofgarchilikning oldini olish va yo‘naltirilgan mablag‘lar ta‘lim natijalariga sezilarli ta‘sir qilishini ta‘minlash zarurligini ta‘kidlagan.

Ayni paytda, mamlakatimizda oliy ta‘lim muassasalarini moliyalashtirishning asosiy manbalari-davlat budjeti, to‘lov-kontraktlar va budjetdan tashqari mablag‘lardir. Davlat grant o‘rinlarini moliyalashtiradi, kontrakt asosida o‘qiyotgan talabalar o‘z hisobidan ta‘lim oladi.

¹¹³ Smith A.(1776). The Wealth of Nations. London

¹¹⁴ Keynes.J. M.(1936). The General Theory of Employment, Interest and Money.

¹¹⁵ Friedman M.(1962). Capitalism and Freedom. Chicago

Bundan tashqari, moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida ham budget defitsiti mavjud bo‘lgan holatda, ushbu defitsitni ham davlat moliyalashtiradi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda xususiy oliy ta’lim muassasalarining ham salmog‘i ortdi. Ushbu institutlar to‘liq o‘zini-o‘zi moliyalashtiradi.

1-jadval

Davlat tomonidan ta’lim uchun ajratilgan xarajatlar ko‘rsatkichlari¹¹⁶

Yillar	Ta’limga sarflangan mablag‘ (\$M)	Ta’limga sarflangan mablag‘ (%Budget)	Ta’limga sarflangan mablag‘ (%YaIM)	Ta’limga sarflangan mablag‘ per capita (\$)
2023	5,617.00	22.65%	5.47%	\$156
2022	4,717.80	21.85%	5.23%	\$134
2021	3,198.60	15.08%	4.14%	\$93
2020	2,950.20	17.06%	4.44%	\$87
2019	4,236.40	28.42%	6.30%	\$127
2018	2,838.50	25.88%	4.84%	\$87
2017	3,124.40	22.54%	4.48%	\$97
2016	4,635.00	23.09%	5.38%	\$146
2015	4,736.00	22.37%	5.49%	\$152
2014	4,618.90	22.98%	5.71%	\$151
2013	4,201.90	22.76%	5.74%	\$140
2012	4,069.40	25.83%	6.03%	\$138
2011	3,503.70	25.58%	5.82%	\$120

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ta’lim sohasiga sarflangan xarajatlarning 11 yillik ko‘rsatkichlari berilgan. 2011-2023-yillar davomida O‘zbekistonda ta’lim sohasiga ajratilgan davlat xarajatlari dinamikasida ijobiy o‘zgarish tendensiyasi mavjud. 2011-yilda ta’lim xarajatlari 3 503,7 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5 617,0 mln dollarga yetgan. Jadvaldagi ma’lumotlarning birinchi va oxirgi yillardagi ko‘rsatkichlari farqi qariyb 2113,3 mln AQSH dollarini tashkil etmoqda. Ayniqsa, 2021-2023-yillar oralig‘ida sezilarli o‘sish kuzatilgan. 2021-yilda 3 198,6 mln dollar bo‘lgan xarajatlar 2022-yilda 4 717,8 mln dollarga, 2023-yilda esa 5 617,0 mln dollarga yetgan. Bu holat so‘nggi yillarda ta’lim sohasiga davlat e’tibori kuchayganini ko‘rsatadi.

¹¹⁶ countryeconomy.com.Uzbekistan-government education expenditure.

Ta’lim xarajatlarining davlat budjetidagi ulushi ham tahlil qilinishi kerak bo‘lgan muhim indikator hisoblanadi. 2019-yilda ta’lim xarajatlari budjetning 28,42 foizini tashkil etib, eng yuqori darajaga chiqqan. Eng past ko‘rsatkich esa 2021-yilda kuzatilib, 15,08 foizni tashkil etgan. 2020-2021-yillarda ulushning pasayishiga sabab, dunyoda global inqiroz sodir bo‘lganligidandir. Shunga qaramay, 2022–2023-yillarda ko‘rsatkich yana 21-22 foiz atrofida barqarorlashgan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davr mobaynida ta’lim xarajatlari davlat budjetining o‘rtacha beshdan bir qismini tashkil etib kelgan.

2-jadval

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari tuzilishi¹¹⁷

Oliy ta’lim muassasalari turlari	Soni
Jami oliy ta’lim muassasalari	222 ta
Davlat oliy ta’lim muassasalari	116 ta
Xususiy oliy ta’lim muassasalari	99 ta
Xorijiy oliy ta’lim muassasalari	30 ta

2-jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida davlat sektori hali ham yetakchi hisoblanadi. Ya’ni O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining yarmidan ko‘pi davlat sektoriga tegishli. Xususiy oliy ta’lim muassasalarining ulushi ham yildan yilga ortmoqda. Ushbu institutlar asosan kontrakt to‘lovlaridan moliyalashtiriladi. Xorijiy oliy ta’lim muassasalari sonining ortishi ta’lim bozorida internatsionallashuvni bildiradi. Bunda, asosan, xorijdagi yirik universitetlar O‘zbekistonda o‘z filiallarini ochadi. Ushbu institutlar kontraktlar va xorijiy investitsiyalar orqali moliyalashtiriladi.

Umuman olganda, xususiy va xorijiy oliy ta’lim muassasalarining salmog‘i ortishi, moliyalashtirish mexanizmlarning diversifikatsiyalashayotganidan dalolat beradi. Bu esa tizimning bozor tamoyillariga moslashib borayotganini bildiradi.

Oliy ta’lim tizimi har qanday davlatning intellektual salohiyati va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Shu sababli uni moliyalashtirish mexanizmi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi

¹¹⁷ www.stat.uz.Higher education in the Republic of Uzbekistan

so‘nggi yillarda tub islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda va bu jarayon moliyalashtirish modelida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda oliy ta‘lim muassasalarining muhim qismi davlat tasarrufida bo‘lib, ular davlat budjeti mablag‘lari orqali moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, nodavlat va xususiy oliy ta‘lim muassasalari sonining ortishi hamda kontrakt to‘lovlari ulushining yuqoriligi oliy ta‘lim tizimining aralash moliyalashtirish modeliga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Bu esa davlat budjeti yuklamasini ma‘lum darajada kamaytirish bilan birga, oliy ta‘lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq moliyalashtirishning kontrakt to‘lovlariga yuqori darajada bog‘liqligi ijtimoiy tenglik masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi. Shu bois grant o‘rinlari sonini maqbullashtirish, budjetdan tashqari daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatdan tushadigan mablag‘larni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda oliy ta‘limni moliyalashtirish tizimi davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan holda shakllanib bormoqda. Kelgusida moliyalashtirish manbalarini yanada takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va samaradorlikni kuchaytirish orqali oliy ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarori. <https://lex.uz/>
2. Karlibaeva G. Oliy ta‘lim tizimini moliyalashtirishni samarali tashkil etish uchun zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanishni kengaytirish yo‘llari. 2025
3. Smith A.(1776). The Wealth of Nations. London
4. Keynes.J. M.(1936). The General Theory of Employment, Interest and Money.
5. Friedman M.(1962). Capitalism and Freedom. Chicago
6. www.stat.uz. Higher education in the Republic of Uzbekistan
7. Countryeconomy.com Uzbekistan-government education expenditure
8. www.worldbank.org. Education finance